



1934-yil avgust oyida Firoqiy Mirzoyi Xuqandiy va Charxiy ikkovlarini Chek Chuvaldoqqa qovun sayliga taklif qilib yozgan g'azali ham qo'lyozmadan o'rin olgan, lekin g'azalning oxirgi qismi saqlanib qolmagan. Bundan tashqari andijonlik shoir Ulfatning xati, yana maktub janrida yozilgan bir g'azal mavjud.

Xullas, qo'lyozmada shoirning 1915-yildan 60-yillargacha yozgan asarlari o'rin olgan. Qo'lyozmadan ko'rinib turibdiki, Firoqiy ijodi hali o'rganilishga muhtoj, ko'plab ilmiy izlanishlarni taqozo etadi. Agar uning to'liq devoni topilsa, shoirning ijodi va faoliyati haqida yanada mukammal ma'lumot olishning imkoni tug'ilgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Halilbekov A. Namangan adabiy gulshani: Ilmiy tadqiqot / Mas'ul muharrir. Habib Sa'dulla.- Namangan: Namangan nashriyoti, 2007 yil. B-467.

2. Qayumov P.D."Tazkirayi Qayumiy": Kitob 2 / Nashrga tayyorlovchi: F.Qayumov. - Toshkent: O'zFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyotlar bo'limi, 1998. B-472.

3. Qayumov P.D."Tazkirayi Qayumiy": Kitob 3 / Nashrga tayyorlovchi: F.Qayumov. - Toshkent: O'zFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyotlar bo'limi, 1998. B-716.

4. Qayumov P.D."Qo'qon adabiy muhiti". - Tosh.kent: "Fan" nashriyoti.1963 yil. B-18.

5. Firoqiy. Qo'lyozma. Shaxsiy kutubxona.

*Shoiraxon Toshxujayeva,
Maxbubaxon Tojiboyeva
Qo'qon DPI dotsentlari*

ERKIN A'ZAM ASARLARIDA QO'LLANGAN INDIVIDUAL NEOLOGIZMLAR LINGVOPOETIKASI

Annotasiya. Mazkur maqolada yozuvchi Erkin A'zam asarlarida qo'llangan individual neologizmlar haqida so'z boradi. Individual neologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlilga tortiladi.

Аннотация. В данной статье речь идет об отдельных неологизмах, используемых в произведениях писателя Эркина Азама. Анализируются лингвопоэтические особенности отдельных неологизмов.

Abstract. This article talks about individual neologisms used in the works of writer Erkin A'zam. The linguopoetic features of individual neologisms are analyzed

Kalit so'zlar: lingvopoetika, individual neologizm, kommunikasiya, ekspressiya, kumulyasiya.

Key words: linguopoetics, individual neologism, communication, expression, cumulation.

Lingvopoetikaning yuzaga kelish masalalari ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortib, bahs va munozaralarga sabab bo'lgani qadimdan ma'lum. "Lingvistika va poetikaning o'zaro munosabatlari hanuzgacha muammo bo'layotganligi Vinogradov asarlarida ham qayd etiladi".[1;18]Ma'lumki, boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq adabiyot so'z san'atiga asoslanadi. Badiiy asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari



aynan soʻz vositasi orqali ochib beriladi. Shu sababli ham soʻzning asar mazmunini aks ettirishdagi roli beqiyos. Soʻz sanʼatining mohiyati faqat lingvopoetika yordamida talqin qilinadi. Lingvopoetika kontekstda til birliklari orqali namoyon boʻladigan estetik xususiyatlarni oʻrganuvchi filologiyaning alohida boʻlimi sifatida oʻrganiladi.

Til – ijtimoiy hodisa sifatida kommunikativ, ekspressiv va kumulyativ funksiyalarni bajaradi. Badiiy nutq ham ayni vazifalarni oʻz zimmasiga olganligi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda ekspressiv xususiyatning ustuvorligi kuzatilsada, kumulyativ vazifasi ham yozuvchilar ijodiy mahoratida yaqqol aks etadi. Yaʼni yozuvchilarning ijod laboratoriyasida xalq tili elementlari qayta ishlanib, jilolanib, yana xalqqa taqdim etiladi. Bu bilan til imkoniyatlari, til resurslari boyib, avlodan-avlodga oʻtib borishi taʼminlanadi. Bu borada yozuvchilar tomonidan yaratilgan individual neologizmlar ham muhim oʻrin tutadi.

Ijodkorning til boyliklarini qayta ishlash mahorati haqida soʻz borganda, adib tomonidan yaratilgan **individual neologizmlarga** ham eʼtibor qaratish lozim. Erkin Aʼzam badiiyat olamiga bir necha yangi soʻzlarni olib kirdi. Jumladan, **juftgarchi** («Yozuvchi»), **shoʻx-shalayim** («Bizning togʻa»), **erkashotirlar** («Piyoda»), **Olashovur** («Yozuvchi»), **gʻaribohang** («Pakana oshiq koʻngli»), **tovuqtovon** («Yeti tulki»), **chantrimore, kalamakatore** («Anoyining jaydari olmasi»)kabi qator soʻzlar xarakterlar tasvirida, voqeliklar tizimida alohida ahamiyatga molik. Mazkur soʻzlar ularning muqobil variantlari, sinonimlari bilan qiyosan semantik jihatdan quyidagi jadval koʻrinishida tahlil etildi:

| Individual neologizm | Matndagi maʼnosi | Izohli lugʻatdagi maʼnosi |
|-----------------------|------------------------|--|
| Juftgarchi | Olib-sotar, chayqovchi | - |
| shoʻx-shalayim | Oʻta shoʻx, tantiq | Shalayim - kuch madori ketgan, majolsiz, shalviragan |
| Erkashotirlar | Erkatoy oʻgʻillar | Shotir - I. Epchil, mohir. II. xizmatkor, jilovdor. |
| Gʻaribohang | Shikasta, past ovozda | Gʻarib ar.- yot, begona, II. Bechora, nochor. III. Ajib, gʻaroyib[2;528] |
| Olashovur | Olloshukur | Ism |
| Chantrimore | Joʻshqin salom | - |
| Kalamakatore | Salom, salom | - |

Yuqoridagi jadvaldan koʻrinib turibdiki, Erkin Aʼzam asosan kompozisiya usulida, yaʼni soʻzlarni bir-biriga qoʻshib yangi soʻzlar yasaydi. Shuningdek, soʻzlarni juftlash, qoʻshimchalar qoʻshib yangi soʻz yasalishi ham uchraydi. Yana bir xarakterli tomoni noanʼanaviy tarzda yaratilgan soʻzlar ham badiiy asarlardagi mashhur soʻz va iboralar darajasiga chiqqan. Buni birgina **chantrimore, kalamakatore** soʻzlari misolida koʻrishimiz mumkin: *Ahyon-ahyonda oʻtkinchilardan birortasiga qarab: «Chantrimore!» deya hayqirar, «Chantrimore!» desangiz «Kalamakatore!» deb javob qaytarar edi.*



(«Anoyining jaydari olmasi») Mazkur soʻzlar insonning bir-biriga samimiy va joʻshqin salomi, tilagi kabi maʼnoni anglatganda, ayni soʻzlarning semantik maʼnolari toʻlaqonli aniq emas. Yozuvchi mazkur soʻzlarga mushkul hissiyotning taftini joylaganki, u na yozuvchining oʻziga, na asardagi personaj – shu soʻzlar ijodkori Shodi garangga, na kitobxonga ayon. U faqat qalb bilan anglanadi, uni tavsiflab boʻlmaydi.

Tilda mavjud soʻzlarning sinonimini yaratish sinonimik qatorni va til resurslarini boyitishga xizmat qiladi. Quyidagi misolda ayni namunani kuzatish mumkin: *Mevachevangizni bozorga olib chiqishga iymansangiz, oʻzi soʻrab kelib, arzon garov boʻlsa-da, koʻtarasiga ortib ketadigan biror chaqqon **juftgarchi** har doim topiladi* («Yozuvchi»). Ushbu parchada asosiy qahramonning ehtiyotkor tabiati, dunyoqarashi, omadi chopmagan ijodkor ekanligidan kelib chiqqan holda oʻzbek tili lugʻatida mavjud olib-sotar, chayqovchi soʻzining oʻrniga **juftgarchi** soʻzini yaratib qoʻllaydiki, bu qahramon nutqiga individuallik sifatini bergan. Juftgarchi soʻzida olib-sotar soʻziga nisbatan ijobiy maʼno oʻttenkasi bor. Yaʼni birni ikki qiladigan, toparmon-tutarmon, tadbirkor.

*Kim chopadi? Kim ekadi? **Erkashotirlari** har yoqqa toʻzib ketgan, koʻcha changitib yuribdi* («Piyoda»). Hikoya qahramoni Berdiboy jamiyatga ayricha nigoh bilan qaraydi. Har bir oʻzgarishni xushlamay qarshi oladi. U yangilanishlar, yangilanishlar yoʻlidan borayotgan odamlarga “ola koʻz bilan qaraydi”. Bu hol uning nutqida yaqqol aks etadi. Oʻz hovlisiga kelganda ham oilasidan, yaqinlaridan begona qahramon oʻz jigarlariga nisbatan **erkashotirlar** soʻzini qoʻllaydi. “**Shotir**” soʻzining maʼnosi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da - I. Epchil, mohir.II. Xizmatkor, jilovdor[2;596], deb tavsiflanadi. Mazkur soʻz oʻzini oʻz oilasiga begonadek tutuvchi Berdiboyning begonalik tuygʻusini ifodalashga xizmat qilgan. Unga III shaxs egalik qoʻshimchasining qoʻshilishi esa ushbu maʼnoni yana-da kuchaytirgan.

*Oʻsha kunlari rais yigʻim-terim bilan band, dahmazani uning **Olashovur** degan **shoʻx-shalayim** shofyori keltirib berdi. (Rais buvamiz yozishdan koʻra laqab taqishga usta ekan: Olloshukurni u hazil aralash shunday atardi. Keyinchalik qahramonimiz bu chindan ham olashovurroq yigit bilan rosa sirdosh boʻlib ketdi* («Yozuvchi»).

Yozuvchi ijodiga xos xususiyatlaridan biri taqlid soʻzlardan ham individual neologizmlarni yarata olishida koʻrinadi. Yuqoridagi parchada “**shovur**” taqlid soʻzi shov va shunga yaqin aralash tovushni bildiradi. “**Shovur-shuvur**” ham taqlid soʻz. Mazmuni noaniq boʻlgan gap-soʻz tovushlarni bildiradi[2;588]. Hayotda oʻzining aniq yoʻli, fikri yoʻq, goh u, goh bu tomon ogʻib, rais tomonidan aytilgan mayda vazifalarni bajaribgina kun koʻradigan, hayot yoʻli tushunarsiz shofyor Olloshukurning laqabida ana shu sifatlar maʼnosi mujassamlashgan. Uning xatti-harakatlari, hayot yoʻli noaniq. Mazkur individual neologizmlar taqlid soʻzlar anglatgan tovushga monand sifatni ifodalashga xizmat qilgan. Bu esa qahramoni xarakteridagi nozik jihatlarni yorqin ifodalashda ijodkorga qoʻl keladi.

Baʼzan yozuvchining soʻz yasash borasidagi tajribalarida nomuvofiqliklar ham uchraydi: **shoʻx-shalayim** shunday soʻzlardan biridir. **Shalayim** soʻzi nihoyatda kuchmadori ketgan holatli, majolsiz; shalviragan, deya tavsiflanadi. [2;538] Ayni maʼno ifodalagan soʻzga shoʻx soʻzining birikishida yozuvchining qaysi maʼnoni nazarda tutganligi bir oz mavhum. Kontekstdan kelib chiqqan holda biz uni “madordan ketkizar darajada oʻta shoʻx, tantiq” maʼnosini ifodalagan deb talqin etdik.

Individual neologizmlar yaratish yozuvchining uslubiy mahoratiga xos alohida



jihaddir. Erkin A'zam o'z asarlarida o'ndan ortiq yangi so'zlarni qo'llaydi va ular muallifning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashda asosiy vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ganievna, T. S. (2022). Ellipsis And Anti-Ellipsis In The Erkin A'zam's Works. Journal of Positive School Psychology, 935-940.
2. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ganievna, T. S., & Odinakhan, R. (2022). LANGUAGE AND ETHICS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1026-1029.
3. Shoiraxon Toshxòjayeva, Toshkhojaeva, S. (2016). The Linguopoetic Nature of the Artistic Repetition in the Works of Erkin Azam. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(5), 114-118.
4. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ташхужаева, Ш. Г. (2015). Phonetic dialecticism in erkin azam's works and it's linguopoetical properties. Ученый XXI века, (12 (13)), 66-69.
5. Shoiraxon Toshxòjayeva, Тошхужаева, Ш. Г. (2016). Лингвопоэтическое исследование художественной литературы-описательные средства. Молодийвчений, 1, 382-386.
6. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ganievna, S. T. (2022). LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF PARENTHESES IN THE WORKS OF ERKIN AZAM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1007-1010.
7. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "LINGUOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGIES." Open Access Repository 9.3 (2023): 176-181.
8. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM." Open Access Repository 9.3 (2023): 167-170.

*Kabulova Umida Sayidmaxamadovna, f.f.n., dotsent.
Kabilova Zebiniso Muratovna, f.f.n., dotsent.
Andijon davlat chet tillari instituti*

"FILOLOGIYA" TERMINI HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqola "filologiya" terminining lingvistik lug'atlarda turlicha izohlanishi masalasiga bag'ishangan.

Kalit so'zlar: so'z, termin, matn, adabiyot, fanlar majmui, bilimlar majmui, izohli lug'at, ensiklopediya, o'zbek filologiyasi.

Аннотация: данная статья посвящена вопросу о различном толковании термина "филология" в лингвистических словарях.

Ключевые слова: слово, термин, текст, литература, совокупность наук, совокупность знаний, толковый словарь, энциклопедия, узбекская филология.

Abstract: this article is devoted to the question of the different interpretation of the term "philology" in linguistic dictionaries.

Keywords: word, term, text, literature, set of sciences, set of knowledge, explanatory dictionary, encyclopedia, Uzbek philology.